O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

60410200-“Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishi
306-307-guruh talabalari uchun

RAXIMOVA UMIDA RABBIMOVNAning

“Oraliq boshqaruv hisobi ” fanidan

“Baho siyosatida transfert bahoning tutgan o‘rni va mazmuni” mavzusida ochiq ma’ruza darsining ishlanmasi

Samarqand – 2026

Tuzuvchi:

U.R.Raximova– “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

B.F.Boronov – i.f.d (DSc), professor v.b. “Saturn Metal Qayta Ishlash” MCHJ moliya-iqtisod ishlari bo’yicha direktor o’rinbosari.

D.Ruziyeva – SamDVMCHBU “Buxgalteriya va audit”kafedrasi katta o‘qituvchisi , PhD

Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i. **Sh.Qurbanov**

“Baho siyosatida transfert bahoning tutgan o‘rni va mazmuni” mavzusidagi ma’ruzani o‘qitish texnologiyasi

Ma’ruza vaqti: 2 soat	*Talabalar soni: 48*
Ma’ruza rejasi/ o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi	1.Makroiqtisod nuqtai nazaridan baholarni belgilash konsepsiyasi. 2.Baho siyosatida transfert bahoning tutgan o‘rni va mazmuni. 3.Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari. Maqsadga muvofiq holda ustamalar foizini aniqlash.
O‘quv mashg‘uloti maqsadi:	
Pedagogik vazifalar: *-agrar korxonalar faoliyatini moliyaviy ta’minlashda qisqa muddatli kreditlarning ahamiyatini tushuntirish;* *-agrar korxonalarni kreditlash jarayonining mazmuni va umumiy tartibini o‘rgatish;* *-qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatini kreditlash tartibi va xususiyatlarini tushuntirish;*	O‘quv faoliyatining natijalari: - agrar korxonalar faoliyatini moliyaviy ta’minlashda qisqa muddatli kreditlarning ahamiyatini tushunadi; - agrar korxonalarni kreditlash jarayonining mazmuni va umumiy tartibini o‘rganadi; - qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatini kreditlash tartibi va xususiyatlari, mohiyati va mazmunini o‘rganadi.
O‘qitish metodlari	Ma’ruza, aqliy hujum.
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, noutbuk, videoproektor va boshq.
O‘qitish sharoiti	Videoproektor bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xonalar
Qaytar aloqaning yo‘l va vositalari	Og‘zaki nazorat: Blits-so‘rov, test.

“Baho siyosatida transfert bahoning tutgan o‘rni va mazmuni” mavzusidagi ma’ruzani o‘qitishning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni (Pedagogik texnologiya – muammoli, klaster)	
	O‘qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga	1.1.Mavzuning nomi va rejasi e’lon qilinadi. 1.2.Mavzuni to‘liq o‘zlashtirish uchun	Tinglaydilar Yozib oladilar

kirish (10 daq.)	asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar beriladi. 1.3. Mavzuda ko‘p ishlatiladigan atama va iboralar bilan tanishtiriladi 1.4.Mavzu davomida o‘rganilayotgan muammolarga to‘xtalanadi 1.5.Topshiriqlarga javob berish tartibi tushuntiriladi	Ma’ruza matnini ARMdan (O‘UM, darslik, o‘quv qo‘llanma) oladilar Ma’ruza bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1.Ma’ruza matni tarqatiladi. 2.2.Ma’ruza bo‘yicha qo‘yilgan reja savollari keltirilgan taqdimotlar videoproyektor orqali ko‘rsatiladi, har bir savol bo‘yicha xulosa qilinadi hamda “bumerang” usulida savol bilan murojaat qilinadi 2.3.Doskada asosiy faktlar, hisoblash formulalari hamda hisoblash jarayonlari hayotiy aniq misollar ishlab chiqarish bilan bog‘liq holda yozib ko‘rsatiladi	Tinglaydilar Yozib oladilar Muhim joylarini belgilab oladilar Tushunmagan joylaridan savollar berishga tayyorlanadilar
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1.Ma’ruzada o‘rganilgan mavzu bo‘yicha ko‘tarilgan muammolar va auditoriyaga tashlangan savollar bo‘yicha xulosalar qilinadi 3.2. Talabalar qiziqqan va tushunmagan masalalar bo‘yicha savollariga javob oladilar.	Savol beradilar. Vazifani yozib oladilar

Ma’ruza mavzusi: Baho siyosatida transfert bahoning tutgan o‘rni va mazmuni

Reja

1.Makroiqtisod nuqtai nazaridan baholarni belgilash konsepsiyasi.
2.Baho siyosatida transfert bahoning tutgan o‘rni va mazmuni.
3.Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari. Maqsadga muvofiq holda ustamalar foizini aniqlash.

Asosiy tayanch tushunchalar

Transfert baho, transfert baho siyosati, javobgarlik markazlari, transfert bahoni belgilash, o‘zgaruvchan xarajatlar usuli, yalpi foyda usuli, sotish rentabelligi usuli, aktivlar rentabelligi usuli, “xarajatlar plyus” usuli, to‘liq tannarx plyus foyda, o‘zgaruvchan xarajatlar plyus foyda, tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho.

1.Makroiqtisod nuqtai nazaridan baholarni belgilash konsepsiyasi.

Raqobatga asoslangan bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida sotiladigan mahsulot (ish va xizmatlar)larga ilmiy asoslangan baho siyosatini ishlab chiqish boshqaruv hisobining asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Bugungi kunda xo‘jalik subyektlarida yuz beradigan xo‘jalik operatsiyalarining asosiy qismi ishlab chiqarish bo‘linmalariga to‘g‘ri keladi. Har bir ishlab chiqarish bo‘linmasi ma’lum jarayonlarni amalga oshiradi va boshqa bo‘linmalar bilan iqtisodiy munosabatda bo‘ladi. Ushbu iqtisodiy munosabatlar bir bo‘linma mahsulotini ikkinchi bo‘linma tomonidan xomashyo sifatida foydalanishi yoki xizmat va ish bajaradigan bo‘linmalarni bajargan ish va xizmat ko‘rsatishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu bo‘linmalar yuridik jihatdan mustaqil bo‘lmasada, yuritadigan faoliyatlari bo‘yicha nisbatan mustaqil hisoblandi. Natijada, har bir bo‘linma faoliyati natijalarini korxona tomonidan baholashda, asosiy masala bo‘linmalarning xarajatlari va daromadlari hisoblanadi. Bo‘linmalar daromadini aniqlash uchun ular faoliyatining natijasi bo‘lgan mahsulot (ish, xizmat)lari uchun ichki baho belgilash lozim bo‘ladi. Bu ichki baho xo‘jalik subyekti tomonidan belgilanib, hozirgi kunda buxgalteriya hisobida transfert baho hisoblanadi.

Transfert baho makroiqtisodiyotning turli tarmoqlarida va soliqqa tortish sohasida qo‘llanilib kelinmoqda. Transfert bahoni belgilashning turli usullari bo‘lib, ular bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, uning natijasi ilmiy adabiyotlarda atroflicha yoritilgan.

“Transfer bahosi – bu aloqador tomonlar o‘rtasidagi operatsiyalarda narxlash (baholash). Transfer baholar, odatda, bir guruh kompaniyalar (turdosh shaxslar guruhi) umumiy foydasini soliq solish qulayroq yurisdiksiyalarda joylashgan kompaniyalar foydasiga qayta taqsimlanishining oldini olish uchun fiskal organlar tomonidan nazorat qilinadi”.

Kanadalik professor Entoni Atkinson korxonalar ichidagi javobgarlik markazlarining bir-biri bilan bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlarida qo‘llanilishini ta’kidlab, unga quyidagicha ta’rif bergan: “Transfert baho – bu javobgarlik markazlari o‘rtasida o‘tkaziladigan mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) narxlarini aniqlashda korxonalar foydalanishi mumkin bo‘lgan mexanizmlar va usullar to‘plamidir.

Professor M.Z.Pizengols transfert baholar faqat boshqaruv hisobida qo‘llanilishini qayd etib o‘tgan. “Agar moliyaviy buxgalteriya hisobida materiallarni sotib olish va mahsulotlarni sotish uchun real narxlar qo‘llanilsa, boshqaruv hisobida “transfer baholari” keng qo‘llaniladi, ya’ni tashkilotning ichki tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasidagi mahsulot, ishlar va xizmatlarni bir-biriga o‘tkazishda hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan shartli baholar”.

Shuningdek transfert bahoni korxona ichidagi tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasidagi hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan baho ekanligini V.Y.Kerimov ta’kidlab o‘tgan bo‘lib, unga quyidagicha ta’rif bergan: “Transfert baho bir korxona ichida bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga beriladigan mahsulot (materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar) yoki xizmatlar bahosini aniqlash uchun, faqat korxona ichida foydalaniladigan bahodir”.

Professorlar B.A.Xasanov va A.A.Xashimovlar fikricha: “Transfert baho

korxona ichida bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o‘tkaziladigan mahsulot (materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar) yoki xizmatlar bahosini aniqlash uchun foydalaniladigan bahodir”.

Professor A.X.Pardayev va Z.A.Pardayevalar ham shunga yaqin bo‘lgan fikrni bildirishgan: “Transfert baho – xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki o‘tkazish bahosi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘linmalari va segmentlari o‘rtasida buyumlar va xizmatlar uzatiladigan baho. Bozor miqyosida o‘rnatilishi, tannarxga asoslanishi yoki kelishilgan bo‘lishi mumkin”.

Transfert baho bo‘yicha ilmiy-uslubiy manbalarni tahlili, transfert baholash soliq solish nuqtai nazaridan hamda bir korxona tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasida o‘zaro bo‘ladigan hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan transfert baholarni bir-biridan farq qilishini ko‘rsatmoqda.

2.Baho siyosatida transfert bahoning tutgan o‘rni va mazmuni.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida transfert bahoni aniqlash ishlab chiqarishni tashkil etishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan shakllariga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Transfert baholar mexanizmini ishlab chiqish korxona baho siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Transfert baho korxona ichida bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o‘tkaziladigan mahsulot (materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar) yoki xizmatlar bahosini aniqlash uchun foydalaniladigan bahodir.

Ishlab chiqarish markazlashtirilgan holda tashkil etilgan sharoitda javobgarlik markazlari o‘rtasida mahsulot va xizmatlar almashinuvi ko‘proq haqiqiy (normativ) tannarx asosida amalga oshiriladi.

Markazlashtirilmagan holda tashkil etilgan ishlab chiqarishlarda javobgarlik markazlari nisbatan mustaqil bo‘lib, korxona ichidagi uzatuv (topshirish) bahosi har bir bo‘linma foydasining aniq va ishonchli ko‘rsatkichini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lishi nazarda tutilgan holda o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Korxona ichidagi uzatuv (topshirish) bahosini tanlash nafaqat bo‘linma faoliyati natijalarini aniqlash uchun, balki qanday qilib ishlab chiqarish va sotib olish, sotish va bundan keyin ishlov berish kabi savollar bo‘yicha qarorlar qabul qilish shuningdek, ishlab chiqarishning muqobil variantlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Transfert bahoni aniqlash quyidagi asosiy talablarga tayanadi:

– ishlab chiqarish korxonasining pirovard maqsadiga erishishini va alohida bo‘linmalar maqsadini korxonaning umumiy maqsadi bilan uyg‘un holda birikib ketishini ta’minlash;

– boshqaruvning turli darajalarida menejerlar uchun moslashuvchan va bir xilda bo‘lish;

– markazlashtirilmagan holda boshqarish sharoitida sotuvchi va xaridor bo‘linmalar rahbarlariga ularning mustaqilligini saqlab qolishga imkon tug‘dirishi kerak;

– ichki va tashqi bozorlarning o‘zgaruvchan sharoitlarini tez ilg‘ab olish, foydani samarali sohalarga yo‘naltirish imkonini berish. Masalan, yuqori foydani

soliqlardan imtiyozlar mavjud bo‘lgan sohalarga, yuqori bo‘lmagan foydani esa soliqlari yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltirish lozim;

– amaldagi qonunlar talablari asosida shakllantirilishi va ularga mos kelishi.

Amaliyotda har bir xo‘jalik subyekti o‘z mahsulotini ishlab chiqara boshlashidan avval qancha foyda olishi mumkinligini rejalashtiradi. Xo‘jalik subyekti foydasi mahsulot bahosi va uni ishlab chiqarishga sarflanadigan haqiqiy xarajatlarga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ushbu holatda mahsulot bahosi ishlab chiqaruvchi yoki xaridor xohishi bo‘yicha baland yoki past bo‘lishi mumkin emas, u talab va taklif asosida tartibga solib borilishi lozim.

Ishlab chiqarishning hajmi va baholar darajasi turlicha bo‘lgan holatda foyda summasini solishtirishning bir nechta varianti mavjud. Mahsulotning qo‘shimcha birligini ishlab chiqarish umumiy tushumning ma’lum bir birlikda oshishiga olib keladi va u cheklangan tushum deyiladi. Bunda o‘z navbatida xarajatlar miqdorining ham bir birlik miqdorida oshishi kuzatiladi va u cheklangan xarajatlar deb ataladi. Maksimal foyda cheklangan tushum bilan cheklangan xarajatlar bir-biriga teng bo‘lgan yoki ular bir-biriga maksimal darajada yaqinlashgan holda yuzaga keladi.

Foydalilikning cheklanganligi nazariyasiga muvofiq, ishlab chiqarishning o‘sishi tufayli cheklangan tushum cheklangan xarajatlarga nisbatan tezroq sur’atlarda o‘sib borgunga qadar foyda hajmi o‘sib boraveradi, biroq, cheklangan xarajatlar cheklangan tushumdan oshib ketgan paytda mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish zarur. Shunday qilib, cheklangan xarajatlarning cheklangan tushumga yaqinligi (maksimal) eng yuqori darajada ta’minlanganda yoki unga tenglashtirilganda mahsulot ishlab chiqarishning hajmi va bahosi ishlab chiqaruvchini eng yuqori (maksimal) foyda bilan ta’minlaydi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida korxonada bahoni shakllantirish va boshqarish bo‘yicha tezkor qarorlar qabul qilish zaruriyati tug‘iladi. Buning uchun boshqaruv tizimida bahoni shakllantirish bo‘yicha funktsional bloklarning o‘zaro aloqasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega

Tashqi muhitda quyidagi makrodarajadagi o‘zgarishlar korxona faoliyatida bahoni shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi:

1. Iqtisodiyotdagi o‘sish va pasayish (har qanday mahsulotga bo‘lgan ehtiyoj aholining real daromadlari, investitsiya faolligi, davlat xarajatlari, kredit olish va uni qaytarish imkoniyatlari, baholarning o‘zgarishiga bog‘liq). Shu sababli tashqi muhitni tahlil qilish korxonani baholash uchun boshlang‘ich nuqta va qadam bo‘lib hisoblanadi;
2. Tabiiy resurslarga yaqinlik va ularning zahirasiga ega bo‘lish nafaqat mahsulot ishlab chiqaruvchi, balki qayta ishlovchi korxonalarni ham strategik rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega;
3. Siyosat va huquq. Korxonaning faoliyat yuritishida davlatning iqtisodiy barqarorligi, turli xil mulk egalarining huquqiy jihatdan muhofaza qilinganligi, soliq qonunchiligining o‘zgarib turishi, bojxona huquqi kabi omillar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega;
4. Demografiya. Korxona joylashgan hududdagi aholining soni va

tarkibi uning faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Agar hududda tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lsa, bolalarbop mahsulotlar assortimentiga talab katta bo‘ladi yoki katta yoshdagi aholining hissasiga qarab ularning talabidagi mahsulotlar ishlab chiqarish zarur bo‘lsa, korxona shunga qarab mo‘ljal olishi zarur;

5. Ijtimoiy-madaniy muhit. Jamiyatning iqtisodiy farovonligi oshib borishi bilan unda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga, aholining kam ta’minlangan va ishsiz qatlamlarini himoya qilishga imkoniyat oshib boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korxonalarda baholarni shakllantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishga ta’sir etuvchi omillar tashqi va ichki omillarga bo‘linadi.

Tashqi omillar quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Korxona ishlab chiqarayotgan tovarga bozordagi umumiy talab;
2. Bozorga shu xilda boshqa firmalar tomonidan chiqarilgan tovarlar hajmi;
3. Tovarlarning sifati va bahosi;
4. Xaridorlarni mahsulot bahosi past bo‘lishiga yoki tovar sifati yuqori bo‘lishiga qiziqishi.

Bahoning shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki omillarga quyidagilar kiritiladi:

- mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi;
- uzoq muddatli kapital qo‘yilmalarni qoplash imkoniyati;
- mehnat va materiallar sifati;
- ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;
- cheklangan resurslardan foydalanish darajasi.

3.Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari. Maqsadga muvofiq holda ustamalar foizini aniqlash.

Amaldagi normativ hujjatlardan “Soliq kodeksi”ning VI.“Transfert narxni belgilashda soliq nazorati” bo‘limida transfert baho to‘g‘risida ma’lumot berilib, bunda transfert baholarni belgilashda narxlar va soliq solish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar, transfert bahoni belgilashda soliq nazoratida foydalaniladigan usullar qayd etilgan. Jumladan, 186-modda “Transfert bahoni belgilash chog‘ida soliq nazorati o‘tkazilganida (shu jumladan nazorat qilinadigan bitimning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari hamda uning natijalari taqqoslanadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari hamda ularning natijalari bilan taqqoslanganda) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ushbu moddada belgilangan tartibda quyidagi usullardan foydalanadi:

1) taqqoslanadigan bozor baholarining usulidan;
2) keyingi realizatsiya qilish narxi usulidan;
3) xarajat usulidan;
4) taqqoslanadigan rentabellik usulidan;
5) foydani taqsimlash usulidan” deb belgilab qo‘yilgan, ya’ni transfert bahoni belgilashning besh usuli haqida qayd etib o‘tilgan.

Transfert bahoni belgilashni xalqaro amaliyotda ham, milliy amaliyotda ham bir qancha usullari mavjud bo‘lib, ulardan asosan to‘rt usuldan ko‘proq foydalanilishi iqtisodchi-olimlar A.X.Pardayev va Z.A.Pardayevalar tomonidan qayd etib o‘tilgan: “Baho belgilash usullari:

1.O‘zgaruvchan xarajatlar usuli

2.Yalpi foyda usuli

3.Sotish rentabelligi usuli

4.Aktivlar rentabelligi usuli

Professor Entoni Atkinson transfert bahoning quyidagi usullarini qayd etadi:

1. Bozor bahosi asosida;

2. Xarajat asosida;

3. Shartnoma asosida;

4. Tartibga solinadigan asosda, tomonlar kelishuviga ko‘ra”.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining transfert baholar bo‘yicha tavsiyalari amaldagi usullarni ikkita guruhini ajratadi:

1. Tranzaksiya tahliliga asoslangan usullar:

- taqqoslanadigan nazoratsiz baholar usuli;
- keyingi sotish bahosi usuli;
- “xarajatlar plyus” usuli.

2. Foyda tahliliga asoslangan usullar:

- foydani taqsimlash usuli;
- sof foyda usuli.

Xo‘jalik subyektlari ichidagi javobgarlik markazlarining o‘zaro iqtisodiy munosabatlarida (biri mahsulotini xomashyo sifatida ikkinchisiga o‘tkazganda) jarayonida transfert baholarni belgilashning bir qancha usullari mavjud bo‘lib, ushbu usullardan maqbulini aniqlab olish va qo‘llash muhim o‘rin tutishi dolzarb hisoblanadi. Bu haqda professorlar B.A.Xasanov va A.A.Xashimovlar ham o‘z fikrlarini quyidagicha ifodalashgan: “Korxona ichki bo‘linmalari o‘rtasida transfert baholarni shakllantirishda uni belgilash usullariga alohida e’tibor qaratish zarur. Transfert baholarni belgilashning quyidagi usullari mavjud:

-bozor bahosi;

-to‘liq tannarx plyus foyda;

-o‘zgaruvchan xarajatlar plyus foyda;

-tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho;

-to‘liq yoki qisqartirilgan tannarx.

Xo‘jalik subyekti boshqaruvchilari, bo‘linma-sotuvchilar va bo‘linma-xaridorlarning talablariga birdek javob beradigan yagona transfert baho mavjud emas. Amaliyotda korxonalarning bir qismi shartnomaviy bozor bahosidan transfert baho sifatida foydalanadi, boshqa bir qismi esa “to‘liq tannarx plyus foyda” usulidan foydalanishni afzal ko‘radi”.

Transfert baholarni belgilashning bir qancha usullari mavjud bo‘lsada, amaliyotda ularning qo‘llanilishi iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarning xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Sanoat korxonalari amaliyotida “shartnomaviy bozor bahosi”dan transfert baho sifatida foydalanadi, boshqa tarmoqlarning korxonalarida

esa “to‘liq tannarx plyus foyda” usulidan ko‘proq foydalanadi.

Mahsulot (ish, xizmat)larning shartnomaviy bozor bahosi hajmi qulay transfert baho hisoblanadi, chunki bu baho har bir markazning foydasini mustaqil xo‘jalik birligi sifatida tahlil qilib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Agar tashqi bozorda baho aniq bqlsa (masalan, yangi mahsulot turiga muqobil tovarlar bozori bo‘lmaganda va baho oldindan belgilanmagan bo‘lsa), unda «to‘liq tannarx plyus foyda» ya’ni to‘liq tannarxdan foiz sifatida olingan bahoni qo‘llash lozim bo‘ladi, chunki bunday baho bozor bahosiga yaqin hisoblanadi va bo‘linmalar faoliyati kamchiliklarini aniqlashga imkon tug‘diradi.

Bahoga ustama belgilash vaqtida butun korxonani foydalilik koeffitsentini emas, balki mazkur bo‘linmaning xarajatlari xususiyatlarini hisobga olish zarur. Amaliyotda foyda ko‘pincha moliyaviy qo‘yilmalardan olingan daromad hisoblanadi hamda belgilangan reja ko‘rsatkichi bilan solishtirilib boriladi. Agar transfert baho sifatida «o‘zgaruvchan xarajatlar plyus foyda» usulidan foydalanilsa xomashyo, materiallar, xizmatlar va ish haqi kabi xarajatlarni o‘zgarishiga tuzatishlar kiritadigan qoidaga amal qilinadi.

Transfert baho haqiqiy tannarx plyus qo‘shimcha foyda tarzida belgilanishi ham mumkin. Mazkur usuldan menejerlar o‘z bo‘linmalarida mablag‘lar sarfi uchun javobgar bo‘lgan hollarda foydalanadi, biroq, bu usul mablag‘larni tejash imkoniyatini pasaytiradi, ya’ni haqiqiy tannarx qancha yuqori bo‘lsa, bo‘linma-sotuvchi sotish bahosini shuncha yuqori belgilaydi. Shuni nazarda tutish zarurki, tannarx asosida transfert baholarni belgilash vaqtida korxona tarkibiga kiruvchi bo‘linmalarni foyda yoki investitsiya markazlari sifatida emas, balki xarajatlar markazlari sifatida qarab chiqish lozim. Bunday sharoitda o‘zgaruvchan xarajatlar asosida belgilangan transfert baholar samarali hisoblanadi. Bu usulda quyidagi ikkita shartga amal qilinadi:

1) ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar birligiga sarflangan aktivlar qiymati bir xil;

2) ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar darajasi qolgan xarajatlarga nisbatan deyarli o‘zgarmas.

O‘zgaruvchan xarajatlar asosida korxona ichidagi topshiruvlar paytidagi baho usuli to‘liq tannarx asosidagi usuldan korxona zahiralaridan yanada samaraliroq foydalanishni ta’minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Transfert baho siyosati masalasi bo‘yicha moliyachi va marketologlar o‘rtasida uni shakllantirishga nisbatan ikki muqobil yondashuv - xarajatlar va qiymat yondashuvlari sohasida bahs-munozara kelib chiqadi. Ularning mohiyatini 13.1-jadval yordamida ifodalash mumkin.

13.1.-jadval

Transfert bahoni belgilashga nisbatan yondashuvlar

T/r	Xarajatlar asosidagi yondashuv	Qiymat yondashuvi
1.	Mahsulot	Xaridorlar
2.	Texnologiya	Qiymatliklar

3.	Xarajatlar	Baho
4.	Baho	Xarajatlar
5.	Qiymatliklar	Texnologiya
6.	Xaridorlar	Mahsulot

Transfert bahoni belgilashga nisbatan xarajatlar yondashuvi eng sinalgan va ishonchli yondashuvdir. Uning asosida real kategoriya yotadi, bu - mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanadigan xarajatlardir.

Ushbu xarajatlar mahsulot ishlab chiqarishga va sotishga sarflangan haqiqiy xarajatlar kategoriyasi orqali ifodalanadi hamda buxgalteriyada dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Buning ustiga, ma’lum darajada bu yondashuvning nufuzi uni iqtisodiy nazariyada qo‘llab-quvvatlanishi bilan bog‘liq, chunki, mahsulotlar o‘rtasida xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash, tannarxni shakllantirish va boshqarish bahoni korxona uchun naflilik nuqtai-nazaridan daromad olish manbaiga aylantiradi

Mahsulotni sotishda baho darajasini sotishning va shunga mos ravishda ishlab chiqarishning taxminiy hajmi belgilaydi. Shu bilan birga, boshqaruv hisobi e’tirof etadiki, mahsulot birligini ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari o‘zgarishi bevosita ishlab chiqarish miqyosiga bog‘liq. Ishlab chiqarish xarajatlarining o‘sishi bilan bir buyumga to‘g‘ri keladigan doimiy xarajatlar summasi va ishlab chiqarishga sarflanadigan o‘rtacha xarajatlar hajmi ham o‘sadi. Binobarin, tadbirkor menejer transfert bahoni belgilayotganda xarajatlar usuli asosida yoki raqobatchilar tomonidan baho bo‘yicha qabul qilingan qarorlar ta’siri ostida passiv baho belgilash yo‘lini tanlamasligi lozim.

Eng oqilona yondashuv - transfert bahoni shakllantirishga nisbatan faol yondashuv usuli bo‘lib, bunda transfert bahoni boshqarish orqali sotishlarning zarur hajmiga mos keluvchi o‘rtacha xarajatlar hajmiga erishiladi, bu esa korxonani foydalilikning kutilayotgan darajasiga olib chiqadi.

Transfert bahoni belgilanishi mehnat bozorida raqobatda bo‘lgan boshqa korxonalar ta’siriga ham bog‘liq. Shu bois, korxonaning baho siyosati buxgalterlar, moliyachilar, marketologlar, menejerlar va bozorni o‘rganuvchi axborot xizmatchilarining doimiy hamkorligi natijasida tug‘iladi va takomillashadi. Bunday sharoitda baho siyosatini belgilash korxonaga foyda, xaridorga esa ko‘proq naf keltirishi lozim.

Demak, moslashuvchan transfert baho siyosatini yuritish va unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish, iste’molchilarni rag‘batlantirish hamda tovar bozoridagi raqobatda ustunlikka erishish imkonini beradi.

Test topshiriqlari:

1. Transfer baho nima?

A) Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish xarajati

B) O‘zaro bog‘liq bo‘linmalar o‘rtasida tovar va xizmatlar uchun belgilangan narx

C) Davlat tomonidan belgilanadigan chakana narx

D) Mahsulotning bozor qiymatidan past narxi

2. Transfer baholashning asosiy maqsadi nima?

A) Soliq stavkalarini oshirish
B) Ishlab chiqarish hajmini kamaytirish
C) Korxona bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini baholash
D) Mahsulot sifatini pasaytirish

3. Transfer baholar asosan qayerda qo‘llaniladi?
A) Faqat davlat tashkilotlarida
B) O‘zaro bog‘liq korxonalar va tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasida
C) Faqat jismoniy shaxslar o‘rtasida
D) Faqat chakana savdoda

4. Transfer narxlashtirishda bozor bahosi qanday ahamiyatga ega?
A) Narxni belgilash uchun asos bo‘lishi mumkin
B) Umuman hisobga olinmaydi
C) Faqat ish haqi uchun qo‘llaniladi
D) Faqat soliq hisoblashda ishlatiladi

5. Transfer bahoning asosiy turlaridan biri qaysi?
A) Chakana baho
B) Ulgurji baho
C) Xarajatlar asosida belgilangan baho
D) Tarif bahosi

6. Xarajatlar asosida transfer baho qanday belgilanadi?
A) Faqat foyda asosida
B) Mahsulot tannarxi va belgilangan ustama asosida
C) Faqat talab asosida
D) Faqat davlat qarori bilan

7. Bozor bahosi asosida transfer narx belgilash nimani anglatadi?
A) Mahsulotni bepul topshirishni
B) Ichki bo‘linmalar o‘rtasida bozor sharoitidagi narxdan foydalanishni
C) Mahsulotni tannarxidan past sotishni
D) Narxni tasodifiy belgilashni

8. Transfer baholash boshqaruv hisobining qaysi yo‘nalishiga tegishli?
A) Ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilishga
B) Faqat statistik hisobotga
C) Faqat kassa operatsiyalariga
D) Faqat soliq deklaratsiyasiga

9. Transfer baho korxonaning qaysi ko‘rsatkichiga ta'sir qiladi?
A) Bo‘linmalarning moliyaviy natijalariga
B) Faqat xodimlar soniga
C) Faqat korxona manziliga
D) Faqat ustav kapitaliga

10. Transfert narxlarni belgilashda qaysi tamoyil muhim hisoblanadi?
A) Tasodifiylik
B) Adolatlilik va iqtisodiy asoslanganlik
C) Faqat rahbar xohishi
D) Narxlarni doimiy oshirish

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Transfert bahoga ta‘rif bering.
2. Korxona faoliyatini rivojlantirishda oqilona transfert baho siyosatini ishlab chiqishning zarurati nimada?
3. Transfert baho va xarajatlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?
4. Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan xarajatlar yondashuvining qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?
5. Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan qiymat yondashuvining qanday afzalliklari bor?
6. Korxonada transfert bahoni belgilash qanday talablar asosida amalga oshiriladi?
7. Transfert bahoni belgilash usullariga izoh bering.
8. Transfert bahoni belgilashda mahsulotni zararsiz sotilishini belgilash qanday ahamiyatga ega?

TAQDIMOTLAR

“Insert” texnikasi bilan ishlash qoidasi

1. Ma’ruzalar matnini o’qing va o’qigan betlardagi qatorlarning yon chetlariga quyidagi belgilarni qo’yib borib ushbu usulni qo’llang:

V - bilgan bilimlarimga mos (ma’lumotlar) to’g’risida

- (minus) - bilgan bilimlarimga qarama-qarshi bilimlar to’g’risida

+ (plyus) - bilgan bilimimga nisbatan yangi ma’lumot hisoblanadi

2. Olgan bilimlaringiz to’g’risidagi ma’lumotlarni jadval shaklida tizimlashtiring:

Mavzu savollari	**V**	**-**	**+**	**?**
1.				
2.				

Tarqatma materiallar

1. Transfert bahoning shakllanish sxemasi



Asosiy adabiyotlar	
1.	Xasanov B.A., Alikulov A.I., Eshmuradov U.T. Boshqaruv hisobi. Darslik. - Samarqand: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024. - 234 bet.
2.	Alikulov A.I., Eshmuradov U.T., Raximova U.R., Boshqaruv hisobiga kirish *O'quv qo'llanma.* - Samarqand*: 2026.* – 156 b.
3.	Xasanov B.A.,Ganiyev Z.U.,Muxammedova D.A. Boshqaruv hisobi. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2018.310-bet.
Qo'shimcha adabiyotlar	
4.	Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 bet
5	Хасанов Б.А., Хашимов А.А. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби. Darslik. –T.: "Иқтисодиёт дунёси", 2021 – 249 б
6.	Ricky W. Griffin Fundamentals of Management, Eighth Edition. 20 Channel Center Street Boston, MA 02210 USA. 2016. – 547 page.588-bet.
Axborot manbaalari	
7.	https://dn720003.ca.archive.org/0/items/fundamentals-of-management_202212/Fundamentals%20of%20management.pdf
8.	https://www.zambiancu.org/1zRead/GruberJ-2008-public-finance-and-public-policy.pdf
9.	https://opac.atmaluhur.ac.id/uploaded_files/temporary/DigitalCollection